

# OLIV TA'LIM TIZIMI TALABALARINING O'ZINI- O'ZI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

*D.A.Dadajanova,  
Toshkent davlat pedagogika  
universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotasiya.** Ushbu maqola Oliy ta'lim tizimi talabalarining o'zini-o'zi rivojlantirishda mustaqil ta'lim kompetentligini shakllantirish, mustaqil va kreativ fikrlash zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim tizimi, kasbiy kompetensiya, mustaqil ta'lim, tanqidiy va ijodiy fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, kredit modul tizimi.

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. O'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosiy o'rinni egallaydi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammoni echimi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazishdir.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli

hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash. Shunday ekan, kredit – modul tizimi dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Ta'lim muassasalarida talaba mustaqil ishining tashkil etishdan asosiy maqsad:

- o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir;

- talabalarda dialektik dunyoqarashni tarkib toptirish;

- talabalarning o'quv-bilish faolligi va mustaqilligini tarkib toptirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning birligini ta'minlash;

- predmetlararo aloqadorliqni ta'minlash;

- ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;

- tahsil oluvchilarda mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabatni tarkib toptirish;

- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida mutaxassislikka tayyorgarlikni takomillashtirish;

- fanlar va mutaxassisliklarning majmuaviy uslubiy ta'minlanishi;

- darsning samaradorligini oshirish yo'llari;

- yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

- ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- kerakli ma'lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash;

- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bilan ishlash;
- internet tarmog'idan ratsional echimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Pedagog o'z ixtisosligi bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas'uldir. U muntazam ravishda o'z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o'qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo'lishi, aniqrog'i, kasbiy kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Endilikda o'qituvchi uchun o'zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o'z faoliyatida qo'llay olishi, bir so'z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda bilimga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish orqali salohiyatli, qo'yilgan muammoni hal qila olish layoqatiga ega yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan «Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi» to'g'risidagi namunaviy Nizom asosida amalga oshirilmoqda. Albatta, ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta'lim olishlari uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq, ko'p hollarda o'quv-tarbiya jarayonida talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalasiga dolzarb pedagogik muammo sifatida

qaralmaydi, mustaqil ta'lim mazmunini tahlil etish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, uning samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Bu va shunga o'xshash boshqa masalalar oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlar tayyorlashda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish, amalga oshirish, nazorat qilish borasida qator pedagogik muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

.Oliy o'quv yurtlarida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda mustaqil ta'limning o'rni, uning ijodiy fikrlaydigan, mustaqil faoliyat yuritadigan, o'z-o'zining kasbiy takomillashuvini nazorat qiladigan shaxslarni tarbiyalashdagi o'rni ko'rsatish va bo'lajak mutaxassisning kompetentligini shakllanishida uning rolini tahlil etishdan iboratdir.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassis kompetentligini aniqlash nihoyatda muhim masala sanaladi. Chunki bo'lajak mutaxassisning ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat yuritishi uning kompetentligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kompetentlikni shakllanishida asosiy o'rinni talabalar mustaqil ta'limi egallaydi. Chunki bo'lajak mutaxassis faqat bilim va ko'nikmaga ega bo'libgina qolmay, uni amalda qo'llay olishi talab qilinadi. Bunga esa ta'lim jarayonida talabalarni muammoli topshiriq va vazifalarni mustaqil holda hal qilishga o'rgatish orqali erishish mumkindir. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda mustaqil ta'lim bo'lajak mutaxassislarni har qanday sharoitda va holatda o'zlarining aqliy salohiyatlarini to'la ishga solish, zarur bo'lgan bilimlarni izlab topish, amaliy faoliyatlarida tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bir so'z bilan aytganda ijtimoiy hayotda va ta'lim-tarbiya jarayonida to'laqonli, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Talabalik davrida o'qituvchining hamkorligida, maslahatlariga suyangan holda mustaqil bilim olish ko'nikma va malakalari tarkib topadi. Oliy o'quv yurtidagi mustaqil ta'limning foydali tomonlaridan biri shundaki, talaba o'quv dasturi va darsliklaridan tashqaridagi kasbi va ixtisosligiga aloqador bo'lgan bilimlarni ham izlab topishga, tajriba-sinovlar o'tkazgan holda yanada boyitishga erishadi. Bu, o'z navbatida, tashabbuskor, bunyodkor va ijodkor kadrlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

Mustaqil ta'lim talabalar o'rtasida ijobiy ma'nodagi raqobatni keltirib chiqaradi. Bir-biridan ibrat olgan holda o'zlarining aqlini, kuchini, vaqtini foydali faoliyat bilan shug'ullanishga yo'naltiradilar. Turli xil tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish, fan olimpiadalarida ishtirok etish va g'olib bo'lishga intilish, ilmiy-ijodiy ko'rgazmalarda qatnashish orqali talaba iste'dodining noma'lum qirralari ochiladi. Talabaning o'ziga, aqli va qobiliyatiga bo'lgan ishonchi ortadi. Mustaqil ta'lim yoshlarning shaxs sifatida kamol topishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Unda xarakter xususiyatlarining barqarorlashuvi, ayniqsa, irodaviy sifatlarning mustahkamlanishi, o'z-o'zini boshqarish kabi fazilatlarning takomillashuvi ro'y beradi. Atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga befarq bo'lmaslik, ularni to'g'ri baholay olish, o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirish va dalillashga odatlanadilar.

Bizning nazarimizda, mustaqil ta'lim yoshlarni ertangi kunning murakkab muammolariga qiynalmas dan javob topishga tayyorlashning omili bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning mustaqil bilim olishlari oliy o'quv yurtlarida o'quv reja va dasturda aniq belgilangan. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassisning kompetentligi shakllanishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi, izchilligi, tizimliliigi katta ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz kerak.

Ayniqsa xozirgi axborot asrida talabaning axborot kommunikatsion texnologiyalar dan erkin foydalana olishi va chet tilida muloqot qilishi ham uning to'laqonli mutaxassis bo'lib yetishishida muhim o'rin egallaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aliev I.T. Pedagogning kasbiy kompetentligi // Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. — 55 b.

2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.

3. Lyubimova O.V. Normativ kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va tashxislashning ba'zi usullari to'g'risida / O.V. Lyubimova // Tomsk xabarnomasi davlat universiteti. 2009. No 327. S. 181-183

